

O'QUVCHILARNING TA'LIM TARBIYASIDA YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI

*Buxoro viloyati Olot tumani 33-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Hamdamova Mo'tabar Qosimovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdayuqori samaradorlikka erishtiruvchi usullar, o'quvchilarni faol, ahil jamoaga aylantirishga yordam beruvchi psixologik omillar, muallifning ko'p yillik tajribalariga asoslangan yangi g'oyalar va ularning ahamiyatli tomonlarikeng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, didaktik o'yinlar, innovatsion dars, tafakkur, psixologiya, ta'lim-tarbiya, interfaol metodlar, psixologik mashq. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, fan va texnikaning rivojlanishi, insoniyat hayotidagi jadallashib borayotgan o'zgarishlar ta'lim sohasida hamyangiliklar davrini boshlash kerakligini isbotlayapti. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish borgan sari ortganiga guvoh bo'lyapmiz. Buning asosiy sabablaridan biri o'quvchilar uzoq vaqt an'anaviy tizimda tayyor bilimlarni egallashgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni mustaqil fikrlashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi, mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

Kelajagimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni bugungi kun talablaridarakasida o'qitish, xalqaro baholash mezonlariga mos bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish bugun biz pedagoglarga asosiy vazifa bo'lib, o'z ustimizda yanada ko'proq ishlashga, izlanishga undamoqda. Metodlar, pedagogik texnologiyalar nafaqat muallim malakasini oshiradi, balki ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlaydi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlash, ijodetish va izlanishga undash;
- o'quv jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini uzluksiz ta'minlanishi;
- o'quvchilarning har bir masalaga ijodiy yondashishlarini ta'minlash;

- pedagog va o'quvchining doimiy hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish.

Darslar samaradorligini oshirishda o'quvchilar psixologiyasini ilk maktabgakelgan davrlaridayoq o'rganish, sinfni ahil jamoaga aylantirishga erishish lozim. O'quv yilining birinchi choragida o'quvchilar o'rtasida «Yashirin ovoz berish» psixologik treningini o'tkazish orqali o'quvchilarning o'zaro muomalasini ijobiy tomonga o'zgartirishga erishish mumkin. Buning uchun xuddi saylovkabi yashirin ovoz berish orqali sinfdagi eng yaxshi, odobli o'quvchilar va eng odobsiz, urushqoq o'quvchilar aniqlanadi. O'quvchilar tarqatilgan qog'ozga yashirin ravishda sinfdagi o'zi eng yaxshi deb hisoblaydigano'quvchilardan uch-to'rt nafarini «Yaxshi» deb nomlangan qatorga, o'zinixafa qilgan o'quvchilardan uch-to'rttasini esa «Yomon» deb nomlangan qatorga yozadi. Ovoz bergan o'quvchilar o'zlarining ism-familiyasini yozmay, qog'ozlarni buklagan holda o'qituvchiga topshiradilar. Bunga bir nechadaqiqa vaqt sarflanadi xolos. Shuning uchun ixtiyoriy darsning tashkiliy qismida amalga oshirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar fikri yozilgan qog'ozlardan sinfdan so'ng o'qib chiqadi. Sinf ro'yxatidagi har bir o'quvchining nechta ijobiy fikr va nechta salbiy fikr to'plaganini belgilab chiqadi. Bunda har bir o'quvchi olgan ijobiy fikrlar «+» belgisi bilan, salbiy fikr bildirilgan bo'lsa «-» belgisi bilan belgilab chiqiladi.

Masalan:

Abdumutalipov Asilbek:++++++————— 5ta ijobiy, 10ta salbiy ovoz to'pladi.

Abdunazarova E`zoza :+++++++ 15ta ijobiy ovoz to'pladi...

Shu tarzda aniqlanib, har bir o'quvchiga o'rin belgilanadi. O'rin belgilashda eng ko'p faqat ijobiy ovoz olgan o'quvchi birinchi o'rinni egallaydi. Ba'zidashunday holatlar ham bo'ladi, sinfdagi aksariyat o'quvchilar bir o'quvchi haqida faqat yomon fikr bildiradilar. Bunday usul tarbiyasi og'ir o'quvchilarning fe'lidagi qusurlarni tuzatishda katta yordam beradi. O'quvchilarning yig'gan ballari va o'rinlari ertasi kuni tarbiyaviy daqiqada e'lon qilinadi. Yuqori o'rinlarni egallagan o'quvchilar rag'batlantiriladi, ularning do'stlarga qilayotgan muomalasi, berayotgan yordami va odobi barchaga namuna qilib ko'rsatiladi. Eng ko'p salbiy ovoz to'plagan o'quvchilarga esa sinfdoshlariga yaxshimunosabatda bo'lishga harakat qilishlari

lozimligi tushuntiriladi. Har birlsalbiy ovoz kimnidir xafa qilganligi oqibati ekanligi uqtiriladi. Bu meningtajribamda sinalgan usul bo‘lib, shunday samara berdiki, o‘quv yili boshidaeng ko‘p salbiy ovoz olib, eng yomon deb topilgan o‘quvchim o‘rtoqlarigamunosabatini keskin ravishda o‘zgartirdi va o‘quv yili yakunida o‘tkazilganso‘rov natijasiga ko‘ra eng namunali, xushmuomala o‘quvchilar safigaqo‘shildi. Do‘stlarining o‘zi haqida bo‘lgan fikri yomonliklarini eslashga,pushaymon bo‘lib o‘zgarishga undaydi. Bu usul sinf o‘quvchilarini ahil jamoabo‘lib shakllanishiga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Sinf o‘quvchilari o‘rtasida sog‘lom, do‘stona raqobatni vujudga keltirish,o‘qish tezligini oshirishda o‘quv yili davomida «Haftalik monitoring» musobaqatashkil etib kelaman. Bunda har hafta yakunida o‘quvchilarning o‘qish tezligianiqlanadi va o‘rin belgilanadi. Dastlab birinchi va ikkinchi sinflarda bu29«Boshlang‘ich ta‘lim muammolari va ularni hal etish yo‘llari» mavzusiga bag‘ishlangan 1- Respublika amaliy onlayn konferensiya materiallario‘qituvchi tomonidan amalga oshirilsa, uchinchi sinfdan boshlabo‘quvchilarning o‘zi mustaqil ravishda bir-birining o‘qish tezligini aniqlaydi vabu juda kam vaqtda amalga oshirilishi sababli o‘qish darslariningmustahkamlash bosqichida o‘tkaziladi. Bu musobaqaning eng ahamiyatlitomoni shundaki, o‘quvchilar bir daqiqa davomida to‘g‘ri o‘qigan so‘zlarisoniga qarab guruhlariga bo‘linadilar va o‘zlarining qaysi guruhda, nechanchio‘rinda ekanliklarini aniq bilib oladilar. Sinfdagi qatorlar nomlanadi – birinchiqator «Oltin toj» deb nomlanib, birinchi o‘rinni olgan o‘quvchi birinchi partaga,ikkinchi o‘rinni olgan o‘quvchi esa uning yoniga o‘tiradi va shu tartibdao‘ninchi o‘ringacha bo‘lgan o‘quvchilar tartibi bilan o‘tiradilar. Ikkinchi qatoresa «Oltin kalit» deb nomlanib, o‘n birinchi o‘rindan yigirmanchi o‘ringachabo‘lgan o‘quvchilar navbati bilan o‘zlari egallagan o‘rinlarga o‘tiradilar.Uchinchi qator «Kapalak» deb nomlanadi va kamroq so‘z o‘qigan kapalakdeko‘yinqaroq bo‘lgan o‘quvchilar navbati bilan o‘zlari egallagan o‘rinlari bo‘yichao‘tiradilar. Ortib qolgan joy (agar ortib qolsa) «Dars qoldiruvchilar joyi» debnomlanadi va o‘quvchi dars qoldirgan kunining ertasi kuni o‘sha joygao‘tiradi. Eng oxirgi o‘ringa o‘tib qolishdan or qilgan o‘quvchilar iloji borichadars qoldirmaslikka harakat qiladi. Sababi yana kimdir dars qoldirmagunchao‘sha joyda o‘tirishga majbur bo‘lib, kelmay qolgan o‘quvchigina bu o‘tiraoladilar. O‘zining oldingi joyi esa keyingi o‘rinlardagi o‘quvchilar tomonidanegallanadi. Bu tartibda musobaqa o‘tkazib borish

bilim samaradorligini oshirish, sababsiz dars qoldirishning oldini olishdan tashqari o'quvchilarni ko'proq kitob o'qib izlanishlariga undashi bilan farqligir. Ayrim hollarda bo'yipast o'quvchi orqaga, bo'yi balandi oldinga o'tirib qolsa o'qituvchi donolik bilan vaziyatni to'g'rilashga harakat qilishi lozim. Oldinda o'tirib qolgan bo'yibaland o'quvchiga u shu o'ringa loyiqligi, lekin orqadagi bo'yi past o'quvchiga joyini berib, oliyjanob ish qilishi mumkinligi tushuntirisa u faxr bilan o'rtog'igajoyini berishga rozi bo'ladi. Bundan tashqari o'qish va ona tili darslarida qo'llanadigan uslublardan bo'lgan «Sinkveyn» (fransuzcha «besh qatorli oq she'r») usulidan foydalanish ham o'quvchilarni so'z turkumlarini yaxshi o'zlashtirishiga, fikrlarini to'g'ribayon qilishga, o'rganilayotgan mavzu qahramonlariga xos sifatlar, xususiyatlar, qilgan harakatlarini aniqlash va ularga xolis baho berishga o'rgatadi. Masalan, 4- sinf o'qish darsligidagi shoir Anvar Obidjonning «Bo'ring tabib bo'lgani haqida ertak» mavzusida ertak qahramonlariga ta'rif berishda «Sinkveyn» quyidagicha tuzilishi mumkin:

1. Bo'ri (ot);
2. Yitqich, go'shtxo'r (2 ta sifat);
3. Poylaydi, ovlaydi, yeydi (3 ta fe'l);
4. Bo'ri go'shtxo'r, yovvoyi hayvon (4 ta so'zdan iborat gap);
5. Yirtqich (ma'nodosh ibora);

Bunda o'quvchilar bo'riga xos sifatlarni, uning harakatlari, ta'rif va ma'nodosh iboralarni izlab topish orqali ona tilidan ham bilimlarini mustahamlanadi, fikrlashga o'rganadilar, fikrni to'g'ri bayon qilishga o'rganadilar. Tabiat haqida ham tasavvurlari kengayib boradi.

Bundan tashqari «SWOT» universal tahlili ham juda samaralidir. Inglizchada:

S – strengths – kuchli tomonlar;

W – weaknesses – kuchsiz tomonlar yoki zaiflik;

O – opportunities – imkoniyatlar;

T – threats – xavf-xatarlar;

Ushbu texnologiyadan foydalanish ham o'quvchilarda fikrlashni o'stiradiva nutqni o'stiradi, o'zi va boshqalarning harakati haqida xulosa chiqarishgao'rgatadi. 4-sinf o'qish darsligidagi adib G'afur G'ulomning «Shum bola» mavzusini o'tish jarayonida «SWOT» texnologiyasini qo'llaganimda o'quvchilar quyidagicha tahlil qildilar:

1. S⁻ kuchli tomonlari: Shum bola, ya'ni Qoravoy juda dadil, dovyurak.
2. W⁻ kuchsiz tomonlari: u dangasa, o'yinqaroq, besabr bola.
3. O⁻ imkoniyatlar: Qoravoy ilm-hunar o'rganishi, onasiga ro'zg'orni yuritishiga yordam berishi mumkin edi.
4. T⁻ xavf-xatarlar: yomon kimsalarning qo'liga tushib qolishi va ularboladan yovuz niyatda foydalanishi mumkin.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'quvchilar Shum bolaning harakatlariga baho berish orqali sayoq yurishning oqibatlaridan kerakli xulosachiqarmoqda.

Dars jarayonida o'quvchilar o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida testing qulay usuli – «Barmoqli test» usulini o'ylab topdim. «Barmoqli test» usulidan mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Bunda mavzuyuzasidan tuzilgan test savollari bilan o'quvchilar tanishtiriladi. Javob variantlarko'rsatiladi. Odatiy testdan farqi shundaki, variantlar 1, 2, 3, 4 raqamlaribilan belgilanadi. O'quvchilarga ko'rsatilgandan so'ng «Tun» buyrug'i beriladi. O'quvchilar parta ustiga chap qo'l bilaklari ustiga boshlarini qo'yib turganholatda o'qituvchi tomonidan «Javobni barmoqda ko'rsating!» buyrug'i beriladi. O'quvchilar shunday holatda, ya'ni bir-birlarining javoblarini ko'rmagan holdaqaysi javobni tanlagan bo'lsa, o'ng qo'lni ko'tarib barmoqlari orqaliko'rsatadilar. Bunda birinchi javob to'g'ri deb hisoblaganlar bitta barmoqni, ikkinchi javobni tanlaganlar ikkita barmoqni, uchinchi javobni tanlaganlar uchta barmoqni ko'tarib «Uxlagan» holatda turganlarida o'qituvchi to'g'ri javob bergan o'quvchilar yoniga «Rag'bat» tarqatmalarini parta oralab yuribqo'yib chiqadi. So'ng «Kun» buyrug'i beriladi va to'g'ri javoblar uchun «Rag'bat» tarqatmalari olgan o'quvchilar baholanadi. Bu usul kam vaqtdahamma o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashva baholashga yordam berishi bilan ahamiyatlidir. Xulosa qilib aytganda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida yuqori samaradorlikka erishish uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi,

sinf o'quvchilarini ahil jamoaga aylantira olishi, eng samarali metodlarni aniqlashi va mavzuga mosini o'zo'rnida qo'llay olishi, o'quvchilarni bilim olishga ishtiyoqini kuchaytirishi kerak bo'ladi. Zamonaviy o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Pedagogik texnologiya vapedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, erkin fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarini boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afforova T, Nurillayeva, Sh, Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. T.: «Ilm Ziyoy», 2004. - 80 b. 2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari, T.: O'z. Res. Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. - 164 b. 3. Muhammedov G', To'raqulov X. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarining ilmiy-nazariy asoslari. T. «Fan» 2004. - 135 b.